

Institutimiz xalqaro reytinga kirishga intilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga 2018 yil 26 iyun kuni **Times Higher Education** Rossiya mintaqasi va MDX davlatlari yuqori reyting agentligi direktori Yegor Yablokov va **Elsevier** kompaniyasi Markaziy Osiyo mintaqaviy direktori Aliya Ospanovalar tashrif buyurishdi. Institut rektori O'ktam Umurzakov mehmonlarga institutning bugungi kundagi xorijiy oliy ta'lif muassasalari bilan olib borilayotgan halqaro hamkorlik faoliyati hamda erishilgan natijalar to'g'risida ma'lumot berdi. Bundan tashqari institutning **QS** xalqaro reyting agentligi bilan olib borilayotgan hamkorlik ishlari to'g'risida ham axborot berdi.



Shundan so'ng, direktor Yegor Yablokov **Times Higher Education World University Rankings** ning bugungi faoliyati, dunyo ta'lif muassasalarining reytinglarni aniqlash metodologiyasi va indikatorlari hamda **Times Higher Education** ga a'zo bo'lish talablari to'g'risida taqdimot qildi. Uchrashuvda ko'plab qiziqarli savollarga yetarlicha javob olindi.



Uchrashuv so'ngida, direktor Yegor Yablokov Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari institutining **Times Higher Education Word University Rankingsga** kirish imkoniyati mavjudligini yuqori baholadi va hamkorlikda ishlashga kelishuv imzolandi.



S.O'rinboyev ma'lumoti.